



## QALBLARDA YASHAYDI ASL SHOIRLAR

Xo'jamqulov Javlonbek Baxtiyor o'g'li

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti  
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6596165>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 30- may 2022

### KALIT SO'ZLAR

agglyutinatív, qadimgi  
turkiy til, egalik  
kategoriyasi, morfologik tip,  
singarmonistik tur

### ANNOTATSIYA

*O'zbekiston qaxramoni Abdulla Oripov ardoqli o'zbek shoiri va jamoat arbobi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy o'ziga xos betakror tarzda ochib beraolgan taniqli ijodkorning yorqin xotirasi, amalga oshirgan ishlari va ijodi haqida so'z boradi*

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. 1958 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirib, uni ham 1963 yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi. «Yosh gvardiya» (1963-69), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida muharrir (1969-74), «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri (1974-76), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1976-82), mas'ul kotib (1985-88), Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib (1982—83), «Gulxan» jurnalida muharrir (1983-85), 1996 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida faoliyat yuritgan. Abdulla Oripov 1983- yilda Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Shu yili unga

“O'zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi. 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga loyiq ko'rildi, 1998-yilda esa shoir “O'zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifidir. Birinchi marta respublika matbuotida “Qushcha” deb atalgan she'ri chiqqan paytda Abdulla Oripov talaba edi. Shoirning birinchi she'rlar to'plami “Mitti yulduz” esa 1965-yilda chop etilgan. Undan keyin “Ko'zlarim yo'lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O'zbekiston”, “Qasida” (1972), “Xotirot” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Jannatga yo'l” (1978), “Hayrat” (1979), “Hakim va ajal” (1980), “Najot qal'asi” (1981), “Yillar armoni” (1983), “Haj daftari” (1992), “Saylanma” (1996), “Sohibqiron” (1996), to'rt tomlik “Tanlangan asarlar” (2000—2001) singari qator kitoblari bosilib chiqdi. Abdulla Oripov xalqimizni dunyo adabiyotining sara



namunalari bilan tanishtirish borasida ham talay ishlarni amalga oshirgan. U Dantening "Ilohiy komediya" asarini, L.Ukrainka, T.Shevchenko, N.Nekrasov, Q.Quliev, R.Hamzatov singari shoirlarning she'rlarini mahorat bilan o'zbekchaga o'g'irgan. Shoirning xalqqa, xalqning esa shoirga bu qadar dildosh va sirdosh qilgan shoir fazilatlarini, o'ziga xos xususiyatlari nimada ekan? "Abdulla qaysi bir mavzuga qo'l urmasin, nima haqda she'r yozmasin, uning ko'zi oldida ulug' Vatan turadi, o'sha ulug' Vatanning farzandi sifatida qo'lga qalam oladi. Shu sababdan uning she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik", deb yozadi Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos tomonlari haqida so'z yuritilgan ekan, uning she'rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir. Shoir o'z qalbini xalq qalbiga tarjima qiladi, tarjima uchun esa shubhasiz so'z kerak. Bu so'z esa xalqning o'z so'zi bo'lmog'i lozim. To'g'ri, hamma shoir ham o'z ona tilida she'r yozadi. Lekin ayrim yo'nalishdagi shoirlar borki, o'zbek tilida O'zbekcha bo'lmagan she'rlar yozadilar. Ularning she'rini oddiy xalq tushunmaydi. Ularning lirik qahramoni butun dunyoga, XX asrga qarata falsafa so'qiydi. Bunday "muallaq gaplardan" to'ygan shoirning o'zi ham shunday yozadi: Iqbol deb behuda chekasan yohu, Ohing bu – folbinning daraklaridir. Asrim, asrim deysan asring nima u?! U — to'zg'oq kalendar varaqlaridir. Shoir bu she'rida havoyi gaplardan ko'ra yonginangda turgan insonning orzulariga oshno, dardlariga hamdard bo'lishga chaqiradi. Yuqorida keltirilgan she'rdagi quyidagi misralar buni yaqqol tasdiqlaydi: Inson deb falakka hayqirmoq nega, Inson yoningdaku, u mening qo'shnim.

Axir, Paxtakor-Paxtakor" deb siyqa nom bilan siylangan kolxozchining, ishchining, mexanizatorning ham qalbi bor, ularga ham ma'naviy rizqu ro'z – she'riyat kerak. Xalqqa tushunarsiz, o'ta donishmandlik da'vosida, turli xil eksperimentlar shaklida yozilayotgan she'rlar to'lib-toshib yotar ekan, ko'pchilik hamisha Abdulla Oripov she'rlarini sog'inib, Erkin Vohidovga ko'z tutib, Omon Matjonni izlab yursa hech ajab emas. Abdulla Oripov yoshlar bilan bo'lgan bir suhbatda shunday deydi: "O'zbek tilida eshakni eshak deyiladi, lekin ba'zi shoirlar eshakni eshak deyishdan or qiladi". Ha, shoir xalq so'zi bilan xalq qalbini kuylaydi, kuylaganda Dilrabo ohang bilan, yonib, o'rtanib kuylaydi.

Kulma, kulma, nega kulasan,

Xijolat chekkanning holiga.

Nega qo'l uzatding bir kambag'alning

O'g'rilardan qolgan moliga.

"O'g'rilardan qolgan mol" – xalq tilidagi oddiy ibora, lekin shoir tiliga ko'chganda bu ibora inson qalbining tafakkur rivojlanib borgani sayin kamyoblanib borayotgan ezgu tuyg'ulari ekanligini shunday ta'sircha ifodalaydiki, eng besavod odamning ham qalbi titraydi.

Kolumbda bor alamim manim,

O'zbekiston Vatanim manim.

Shoir kuylagan bu "alam" – xalqning buyuk armoni, dardi, g'ururi ekanligini xalq qalbiga tarjima qilgan. Bu misralarni o'qigan har bir she'rxon bu "alam"ni o'z qalbiga tuyadi. Taajjubki, bu "alam"dan ko'ksi tog'dek ko'tariladi. Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, u behad o'ziga xos shoir. U sevsa, yonib, o'rtanib sevadi, agar nafratlansa, sevgisi darajasidagi kuchli dard, armon bilan nafratlanadi. Unda hech qachon oraliq holat bo'lmaydi.

Men shoirman, istasangiz shu,



O'zirniki erur shu sozim.

Birovlardan olmadim tuyg'u,

O'zgaga ham bermam ovozim.

Bu – o'zligini anglagan o'zbekning o'ktam ovozi. Ayni paytda "mijg'ov va past" gaplardan zada bo'lgan shoir qalbining nidosi.

Abdulla Oripov she'riyati, xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e'tirof etganidek, o'zbek poeziyasida muhim o'ringa, katta salmoqqa ega bo'lgan she'riyatdir. Uning she'riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so'ylash, insonning rangin tuyg'ularini rassomona

ko'z bilan ilg'ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi – shoir she'rlarining takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlaridandir. Abdulla Oripovdek shoirning qalbi ona zamin yanglig' saxovatlidir. Zamin bag'rida turfa xil gullar ochiladi, tikanlar o'sadi. Shu kabi shoirningqalbi ham o'z tuyg'ularidan turfa xil gullar – she'riyat gullarini armug'on etadi. Chindan ham Abdulla Oripovning she'rlari mohiyat e'tibori bilan voqe bo'lgan she'rlardir. Biz uchun, "shoir bir yurt" bo'lgan O'zbekiston uchun shoir ham, uning she'rlari ham hamisha aziz va ardoqlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. — G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1978.
2. Abdulla Oripov. Yillar armoni. — G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1984.
3. Abdulla Oripov. Najot qal'asi. — G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980.
4. Abdulla oripov. Surat va siyrat. — "Yosh gvardiya" nashriyoti, Toshkent, 1981.
5. Abdulla Oripov. Mitti yulduz. — Toshkent, 1965.